




IMOM BUXORIY
XALQARO ILMIY-
TADQIQOT MARKAZI



O'ZBEKISTONDAGI
ISLOM SIVILIZATSIYASI
MARKAZI



*Alisher
Navoiy*

(1441-1501)



“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy gʻurur va iftixor tuygʻularini kuchaytirishga alohida eʼtibor qaratishimiz kerak”.

Shavkat MIRZIYOYEV

BUYUK SHOIR, MUTAFAKKIR VA DAVLAT ARBOBI

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotida tavallud topgan. Otasi Gʻiyosiddin Muhammad (uni Gʻiyosiddin Kichkina deb ham atashgan) saroyning nufuzli amaldorlaridan, onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abu Said Changning qizi boʻlgan.

Navoiy 1501-yil 3-yanvarda Hirotida vafot etgan.



YOSHLIK YILLARI VA ILMIY SAFARLARI

Alisher Navoiyning bolaligi temuriy hukmdor Shohruh mirzo (1377-1447) hukmronligining soʻnggi yillariga toʻgʻri keladi. U temuriy shahzoda Husayn Boyqaro (1438-1506) bilan birga tarbiyalanadi. Toʻrt yoshida maktabga borib, tez fursatda savod chiqaradi. Turkiy va forsiyda bitilgan sheʼrlarni oʻqib, yod oladi. Oʻzbek tili bilan bir qatorda forsiyni ham mukammal egallaydi. Alisherning togʻalari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali Gʻaribiy ham shoir boʻlgan. Boʻlajak shoir ana shunday muhitda

tarbiya topadi. Bolaligi zamonasining mashhur olim-u fozillari davrasida o'tadi. Uch-to'rt yoshlarida mashhur shoir Qosim Anvorning: "Oshiqmiz, jahon o'rtovchi va yoqavayronlarmiz, sening g'aming turganda dunyo fikridan ne foyda" baytini yod aytib, mehmonlarni hayratga soladi.

1447-yilda Shohruh mirzo vafotidan so'ng temuriy shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurash avj oladi. Hirotida ro'y bergan notinchlik sababli G'iyosiddin Muhammad oilasi Iroqqa ko'chadi. Ushbu safar chog'i Taft shahrida olti yashar Alisher mashhur tarixchi, "Zafarnoma" asarining muallifi Sharafuddin Ali Yazdiy (vafoti 1454) bilan uchrashadi va uning duosini olishga musharraf bo'ladi. 1451-yili Xurosonda urush harakatlari barham topgach, Alisherning oilasi Hirotga qaytib keladi.

1452-yilda Abulqosim Bobur mirzoning (1422-1457) Xuroson taxtiga o'tirishi bilan mamlakatda tinchlik-osoyishtalik qaror topadi. Bo'lajak shoir Hirotida mashhur shoir-u fozillardan tahsil olib, she'rlar mashq qila boshlaydi. Sa'diy Sheroziyning "Guliston", "Bo'ston" asarlarini o'qib, Fariduddin Attorning "Mantiqut tayr" dostonini yod oladi. Ushbu falsafiy doston yosh Alisherning dunyoqarashida katta o'zgarish yasaydi. U kelajakda "Mantiqut tayr" singari jiddiy asar yaratishni ko'ngliga tugib qo'yadi.

Zamondosh tarixchi G'iyosiddin Xondamir (vafoti 1534)ning ma'lum qilishicha, "Turkiyda ijod etgan buyuk shoir Mavlono Lutfiy (1366-1465) o'smir Alisherdan:

– Biror g'azal o'qib berish orqali o'z tafakkuringiz mahsullarining yangi namunalaridan bahramand eting, – deb so'raydi.

Alisher matla'yi quyidagicha bo'lgan g'azalni o'qib beradi:

*Orazin yopqoch, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.*

Shunda Lutfiy: "Imkoni bo'lganida edi, o'zining turkiy va forsiydagi 10-12 ming baytdan iborat g'azallarimni shu birgina g'azalga almashtirgan va ushbu ayirboshlash natijasini o'zim uchun katta muvaffaqiyat hisoblagan bo'lardim", deb yosh shoir iste'dodini yuksak baholaydi.

Alisher bolalik chog'laridan umrining oxirgi damlarigacha asosiy vaqtini ilm egallash yo'lida sarflagan. Bir lahza bo'lsa-da, turli bilim va ko'nikmalarni egallashdan tinmagan. Shoir "Muhokamatul lug'atayn" asarida bayon qilishicha, yigitlik davrida 50 mingdan ortiq baytni yod bilgan.

1457-yilda Abulqosim Bobur mirzo vafot etgach, Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said mirzo



(1424-1469) Xurosonga yurish qilib, Hirotni egallaydi. U asosiy e'tiborni markaziy hokimiyatni mustahkamlashga va harbiy yurishlar orqali mamlakat hududini kengaytirishga qaratadi.

Bu davrda Mashhad madrasalarida tahsil olayotgan yosh Alisher “Navoiy” va “Foniy” taxalluslari bilan turkiy va forsiyda ijod qilib, zullisonayn – ikki tilda ijod qiluvchi shoir sifatida taniladi.

Alisher 1464-yilda Hirotga qaytadi. “Majolisun nafois” asarida qayd etishicha, keyinroq ikki yil davomida zamonasining yirik ilmiy-madaniy markazlaridan sanalgan Samarqandda bo'lib, mashhur faqih Xoja Fazlulloh Abullaysiydan tahsil oladi. Mazkur ilmiy safar shoirning keyingi ijodiy

faoliyati ravnaqi uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi.

ILMIY-IJODIY MEROSI

Sulton Abu Said 1469-yilda G'arbiy Eron hududlarini egallash uchun harbiy yurish boshlaydi va Ozarbayjonning Mug'on dashtida oqquyunli turkmanlarga qarshi olib borilgan jangda halok bo'ladi. Shu yili Xuroson taxtini Alisherning bolalikdagi do'sti Husayn Boyqaro egallaydi va shoirni huzuriga chorlaydi. Navoiy Husayn Boyqaroga atab "Hiloliya" qasidasini yozib, Hirotga kirib boradi va umrining oxirigacha o'z do'stiga, temuriylar xonadoniga sodiq mulozim bo'lib qoladi.



Navoiy dastlab o'zining turkiyda yozgan she'rlaridan iborat ilk devoni – “Badoyeul bidoya”ni tuzadi. Keyinroq butun ijodining durdonasi hisoblangan “Hayratul abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab'ayi sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlaridan iborat qariyb 52 ming misralik “Xamsa” asarini yaratadi. “Saddi Iskandariy” dostonida qayd etilishicha, “Xamsa” asarini yozishga atigi olti oy vaqt sarflagan. Shuningdek, “Tarixi muluki ajam”, “Majolisun nafois”, “Munshaot”, “Mezonul avzon”, “Nasoyimul muhabbat”, “Devoni Foniyy”, “Mufradot”, “Lisonut tayr”, “Xamsatul mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Nazmul javohir”, “Muhokamatul lug'atayn”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Sirojul muslimin”, “Arbain”, “Munojot”, “Mahbubul qulub” kabi 30 dan ortiq bebaho asar yozib qoldirgan.

Shoir ijodining mazmun-mohiyatini insonparvarlik, bag'rikenglik, ma'rifatparvarlik, saxovatpe-shalik, yaxshilik, komillik kabi ezgu tamoyillar tarannumi tashkil etadi.

Alisher Navoiyning o'zbek tili rivojidagi xizmatlari beqiyosdir. Jumladan, shoir asarlarida 26035 ta betakror so'z qo'llangan bo'lib, bu o'zbek tilining so'z boyligini belgilashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLIIYATI

Alisher Navoiy adabiy faoliyatni siyosat bilan uyg'unlashtirgan buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobidir. Hazrat 1469-yili davlat boshqaruviga jalb qilinib, muhrdor, ulug' amir, Astrobod viloyati hokimi kabi lavozimlarda faoliyat ko'rsatadi. Hamisha din-u diyonat amriga muvofiq holda, davlat va xalq manfaatini ko'zlab ish yuritadi.

G'iyosiddin Xondamir Alisher Navoiyning bag'rikenglik, insonparvarlik, xayr-u saxovatda benazir-ligini ta'kidlar ekan, oddiy xalq ommasiga, ilm tolibla-riga, shoir-u adiblarga, mudarris-u hunarmandlarga, san'at ahliga yuksak saxovat ko'rsatib, 52 rabot, 25 masjid, 19 hovuz, 16 ko'prik, 14 xonaqoh, 9 hammom, 4 madrasa va 2 to'g'on qurilishiga homiy bo'lganini ma'lum qiladi. Navoiy zamondoshlari u qurdirgan bino, inshootlar soni va tavsifini to'liq keltirish so'zning uzayishiga sabab bo'lishini hisobga olib, o'zlari aniq bilgan inshootlar ro'yxatini keltirgan, xolos. Masalan, Davlatshoh o'n ikkita inshoot haqida gapirgan bo'lsa, Xondamir yuzdan ziyod bino va inshootni, shu jumladan, hovuz va ko'priklarni sanab o'tadi. Faxriy Hirotiy "Amir Alisher 370 xayriya binosi qurgan", deb umumiy tarzda hisob qilsa, Som Mirzo bu songa aniqlik kiritib, "uch yuz yetmishtadan

to'qsontasi rabotlardir", deydi.

Alisher Navoiy rahbarligida Hirotidagi Marg'aniy bog'i qarshisida jome masjid bunyod etilgan. Shaharda qayta qurilayotgan jome masjiddagi ishlarni kuzatish uchun deyarli har kuni u yerga borib, aksar hollarda etagini qayirib, ishchilar qatorida mehnat qilgan. Me'mor, usta va hunarmandlarga ko'plab qimmatbaho kiyimlar, mukofotlar taqdim etish orqali ular ko'nglini shod etib turgan. Natijada uch-to'rt yilga mo'ljallangan ish olti-yetti oyda poyoniga yetgan.

U qurdirgan Xalosiya xonaqosida har kuni mingdan ortiq faqir va miskin lazzatli taomlar bilan siylangan. Har yili muhtojlarga ikki mingga yaqin po'stin, chakmon, ko'ylak, ishton, do'ppi va oyoq kiyim ulashilgan. Mashhadda Rizoviya maqbarasi hovlisida Dorul huffoz inshooti va musofirxona qurdirilib, unda har kuni qashshoq, muhtoj va yetimlarga taom tarqatilgan. "Vaqfiya" asarida qayd etilishicha, birgina vazifadorlar va talabalar uchun oyiga 1300 oltin miqdorida maosh tayinlangan.

Navoiy ulug' amir lavozimidan iste'foga chiqqandan keyin ham siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayot girdobida qolaveradi. Mamlakatning turfa hududlaridan jamiyatning turli tabaqalariga mansub odamlar har-xil masalalarda Navoiyga doimo murojaat qilib kelgan. Shoir erta tongdan tunga qadar bu-

tun vaqtini o'zining homiyligi va saxovatidan, ko'magi va maslahatidan umidvor insonlarga ajratgan.

XV asrning ikkinchi yarmida Hirot madaniy taraqqiyotida Alisher Navoiy yetakchi o'rin tutadi. Samarqandda Amir Temur kutubxonasining vorisi sifatida Mirzo Ulug'bek kutubxonasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, Hirotida Boysung'ur mirzo, Sulton Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy kutubxonalari mashhur bo'ladi. Saroy kutubxonalaridan farqli o'laroq, Navoiy kutubxonasidan oddiy xalq ommasi ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mirxond, uning nabirasi Xondamir kabi mashhur tarixchi, shuningdek, o'z davrining olim-u fuzalolari mazkur kutubxonada jamlangan yozma manbalarni keng istifoda etadi. Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib va boshqa mohir usta-rassomlar kutubxonada samarali ijod qiladi.

XV asrda temuriylar hukmronligi davrida Xuroson va Movarounnahr madaniy jihatdan yuksaldi. Shu bois adabiyotlarda mazkur davr "Temuriylar renessansi" deb ataladi. Unda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ham ulkan hissasi bo'lib, bu mutafakkirning ham ijodiy, ham davlat arbobi sifatidagi faoliyatida o'z aksini topgan.

Xalq oldida va temuriylar saroyida yuksak hurmat va ishonchga ega bo'lgan Navoiy butun kuch-g'ayrati, azm-u shijoati, mol-mulki, nufuzini el farovonligi va



yurt obodligi yo'lida sarflab, "Ulug' amir", "Hazrat Sultonning yaqin kishisi", "Haqiqat va din nizomi" kabi yuksak nomlarga musharraf bo'ladi.



ALISHER NAVOIY HIKMATLARIDAN

Bilmaganni soʻrab oʻrgangan olim, orlanib soʻra-
magan oʻziga zolim.

Oz-oz oʻrganib dono boʻlur, qatra-qatra yigʻilib
daryo boʻlur.

Chin soʻzni yolgʻongʻa chulgʻama, chin ayta olur
tilni yolgʻongʻa bulgʻama.

Odami ersang, demagil odami
Onikim, yoʻq xalq gʻamidin gʻami.

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz oʻlmagʻay gʻamnok chiqmoq.
Jahondin notamom oʻtmak biaynih
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Boshni fido ayla ato qoshigʻa,
Jismni qil sadqa ano boshigʻa.
Tun-kunungga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Kimki ato amrigʻa qoʻymas boʻyun,
Pir ila maxdum ishin der oʻyun.
Balki chekar tengri yoʻlidin ayoq,
Tengri bila oq boʻlar, pirla oq.

Elga ne kelsa aylamas pand,
Ulki ko'nglini qildi g'aflat band.
Kimki pand oldi elga tushgandin,
Oni bilkim, erur saodatmand.

Mo'min ermastur, ulki iymondin
Ro'zgorida yuz safo ko'rgay,
Toki qardoshiga ravo ko'rmas –
Har nekim o'ziga ravo ko'rgay.

Kimki har kimga va'daye qildi,
Shart erur va'dag'a vafo qilmoq.
Va'dakim qilding o'yladurkim dayn,
Farzdur qarzni ado qilmoq.

Ilmi din kasb qilki, sud ermas,
Charx mushkillarini hal qilmoq.
Lekin ul ilm dog'i naf' etmas,
Bilibon bo'lmasa amal qilmoq.

Kishiga necha kelsa mushkul hol,
Hikmat-u aql anga erur halol.
Kesak otqong'a chekar yumruq,
To'ni yirtuq durur, saqoli yuluq.

Xiradmand chin soʻzdin oʻzga demas,
Vale bari chin ham degulik emas.
Kishi chin soʻz desa zebo durur,
Necha muxtasar boʻlsa, avlo durur.

Hayo-vu adab birla tuzgil maosh,
Yana ayla taʼzimu hurmatni fosh.
Ne el yeri boʻlsang, alar rangi boʻl,
Nechuk bor esang, tutqil ul sori yoʻl.

Iymongʻa erur nishon hayo birla adab,
Hurmat bila taʼzim saodatqa sabab.
Hayo-vu muaddab angakim, boʻlsa laqab,
Maqsudigʻa kech yetsa ajab, angla ajab.

Kishida barcha axloqi hamida,
Chu jam oʻldi qoʻyarlari otin ehson.
Biri andin saxodur, bir muruvvat,
Bular gar yoʻqtur, inson ermas inson.





Alisher Navoiy maqbarasi (Hirot)



**IMOM BUXORIY
XALQARO ILMIY-
TADQIQOT MARKAZI**



**O'ZBEKISTONDAGI
ISLOM SIVILIZATSIYASI
MARKAZI**

Nashr uchun mas'ul: **Baxtiyor TURSUNOV**
G'oya mualliflari: **Shahzod ISLOMOV, Shovosil ZIYODOV**
Mas'ul muharrir: **Otabek MUHAMMADIYEV**

Muharrir: **Anvar BOBOYEV**
Musahhih: **Husan NISHONOV**
Dizayner: **Muhammadiqbol SHUKUROV**

© IBXITM - 2022

